

**MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALAR TA'LIM-  
TARBIYASIDA O`YINCHOQLARNING AHAMIYATI**

**Ibragimova Dilshoda**

*NamDU 1-bosqich magistranti*

**ANNOTATSIYA.** Maqola bolalar ta'lism-tarbiyasida o`yinchoqlarning roli va ahamiyatini o`rganishga bag`ishlangan. Bunda o`yinchoqlarning bola tarbiyasidagi pedagogik, didaktik, psixologik jihatlari ochib beriladi.

**АННОТАЦИЯ.** Статья посвящена изучению значения и роли игрушек в воспитании детей. Раскрывает педагогические, дидактические, психологические аспекты игрушек в воспитании детей.

**ANNATATION.** The article is devoted to the study of the importance and role of toys in the education of children. It reveals the pedagogical, didactic, psychological aspects of toys in the upbringing of children.

**Tayanch so`z va iboralar:** psixologik yondashuv, didaktik yondashuv, pedagogik yondashuv, «Raqam qani?», «Nima ko`p?», «Ishoning, ishonmang!», «Farqini toping!»

**Ключевые слова и выражения:** психологический подход, дидактический подход, педагогический подход, «Где число?», «Что больше?», «Верь, не вер!», «Найдите различию!»

**Key words and word expressions:** pedagogical approach, didactic approach, psychological approach, «Where is the number?», «What's the more?», «Believe, no believe!», «Find the difference!»

Bolalik inson hayotining eng go`zal shu bilan birga eng muhim davridir. Chunki kelajak uchun poydevor qurish aynan bolalik davridan boshlanadi. Darhaqiqat hazrat Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda «tufuliyat (bolalik) bahori g`unchasining ajib gullari va sig`ar gulzorining bog`chasining g`arib chechaklari bila orasta bo'l»mog`i lozim. Bunda shoir faylasufona fikr bildirib, «ajib gullar» va

«chechaklar» jumlalarini aytish bilan ta’lim va tarbiyaga urg’u bergen. Ya’ni gulzor gul va chechaklar bilan orasta bo`lgani singari bolalik ham ta’lim va tarbiya bilan inson umrining eng mukammal bosqichi bo`lishi kerak.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning ta’lim-tarbiyasi to`laqonli bo`lishida o`yinchoqlarning ahamiyati katta. Bola tarbiyasiga psixologik, pedagogik va didaktik jihatdan yondashishda o`yinchoqlar vositachi hisoblanadi. Xususan, bola qanday o`yinchoqlarni o`ynayotganiga qarab uning dunyoqarashi, qiziqishlari, kelajakda qaysi kasbni tanlashi va oiladagi muhitni haqida bilib olishimiz mumkin. Aytaylik, bola yorqin rangdagi o`yinchoqlarni o`ynasa, quvnoq, atrofdagilar bilan chiqishuvchan, aksincha, yorqin bo`lmagan rangdagi o`yinchoqlarni o`ynasa, biroz passiv kayfiyatda ekanligi anglashiladi. Bu kabi holatlar bola ruhiyatidagi psixologik jarayonlarni bilishga yordam beradi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida foydalanilayotgan rivojlanish markazlaridagi o`yinchoqlar orqali bolani pedagogik jihatdan farqlay olishimiz mumkin. Masalan, bolalarni mashg`ulot jarayonida ma’lum bir faoliyatga yo`naltirilganida bola ixtiyoriy ravishda markazlarga boradi. Jumladan, Qurish-yasash markazida ko`p shug`ullanadigan bolalarda arxitektura, qurilish sohalariga qiziqish yuqori bo`ladi. Shuningdek, syujetli-rolli o`yinlar va sahnalaشتirish markazida band bo`ladigan bola aksariyat hollarda badiiy ijod, san’at kabi sohalarga qiziqadi.

Bolaning aqliy salohiyatini oshirish uchun didaktik maqsadlarda turli o`yinlardan foydalaniladi. Masalan, matematik qobiliyatlarni shakllantirish va rivojlantirishda «Raqam qani?», «Nima ko`p?», mantiqiy fikrlash darajasini kuchaytirishda esa «Ishoning, ishonmang!» «Farqini toping!» kabi intellektual o`yinlarning ahamiyati katta.

Albatta, bu o`yinlarni o`ynash davomida turli xil o`yinchoqlar asosiy yordamchi sanaladi. O`z o`rnida esa o`yinchoqlarga bir nechta talablar qo`yiladi. Xususan, o`yinchoqlar g`oyaviy jihtdan qadriyat va an`analarimizni o`zida aks ettirishi; jamiyatimizda ilgari surilayotgan mafkuraviy qarashlarga mushtarak bo`lishi; shakl, bo`yoq va bezaklari o`zaro uyg`unlashishi; bolaning jismoniy,

axloqiy, aqliy va badiiy-estetik tarbiyasi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi; milliylik va zamonaviylik elementlarini o'zida jamlashi kerak. Chunki «o'yinchoq o'yining material asosi, u o'yinni yaratishda ishtirok etadi, bolaning o'ziga xos sherigi sifatida namoyon bo'ladi, uning shaxsiga ta'sir ko'rsatadi».

Bugun o'sib-ulg`ayib kelayotgan bolajonlar – O'zbekistonning kelajagi. Shunday ekan, bolalarni o'rab turgan, ular bilan bog`liq bo`lgan har bir ashyoga, xususan, o'yinchoqlarga e'tibor bilan qarashimiz lozim. Buni chuqur anglab yetgan mustaqilligimiz me'mori Birinchi prezidentimiz Islom Karimov shunday degan edi; «O'yinchoqlar obrazi bolaning murg`ak tasavvuriga bamisoli toshga o'yilgan naqshdek muhrlanib, uning ongida bir umr saqlanib qoladi. Go'dakning ulg`ayib, kasb tanlashi, keljakda qanday yo`ldan borishi, o'zining hayot tarzini qanday axloqiy-ma'naviy asoslarga qurishi ham, hech shubhasiz, uning bolalikda qanday o'yinchoqlar bilan oshno bo'lib o'sgani bilan belgilanadi».

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Navoiy, Alisher. Xazoyin ul-maoni. - Toshkent: Yangi asr avlod, 2016. - 11-bet.
2. O.U.Xasanboyeva va boshqalar. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. O'quv qo'llanma. - Toshkent. ILMZIYO. 2006. - 72-bet.
3. I.Karimov. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent. MA'NAVIYAT. 2008. - 97-bet.